

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

12-son (4-jild)

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*№ 12 (4) - 2024*

## **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2024**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00-TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy hodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00-FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

#### *12.00.00-YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi

Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich - yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### *13.00.00-PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pyedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

#### *19.00.00-PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

#### *22.00.00-SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

#### *23.00.00-SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

### **OAK Ro‘yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar bo‘yicha dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

---

**Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari**” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

#### **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### **Bog‘lanish uchun telefonlar:**

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Turg'unov Sherzod Abduvositovich*

FARG'ONA VILOYATI SANOAT KORXONALARINING MODDIY-TEXNIK HOLATI VA ULARNING SANOAT ISHCHILARINING MEHNAT MUHOFAZASIDAGI AHAMIYATI HAQIDA AYRIM FIKR MULOHAZALAR (Farg'ona viloyatida 1950-1970-yillarda chop etilgan vaqtli matbuot nashrlarida e'lon qilingan maqolalar tahlili asosida) ..... 13-19

*Qalandarov Hamza Hamroqul o'g'li*

SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDA YURITGAN ATEISTIK SIYOSATI VA XUDOSIZLAR JAMIYATI FAOLIYATI ..... 20-23

*Berdiyev Abduvali Abdug'aniyevich*

XVIII-XIX ASRLARDA XIVA XONLIGINING ERON VA ROSSIYA BILAN SIYOSIY VA IJTIMOYIY ALOQALARI HAQIDA AYRIM MA'LUMOTLAR ..... 24-32

*Соъуб Раъноев*

KAMBAFALLIK VA UNI QISQARTIRISH MUAMMOLARI ..... 33-42

*Abdimov O'zbek Bektemirovich*

MARKAZIY OSIYO MINTAQASIGA ILMIY QARASHLAR VA KONSEPTUAL MASALALARNING AYRIM JIHATLARI ..... 43-48

*Toshpulatov Nurbek Boboqul o'g'li*

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VILOYATI BOZORLARI VA KARVONSAROYLARI TARIXI ..... 49-53

*Temirova Munira*

ESKI TERMIZ SIMOVKO'ZACHALARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR ..... 54-58

*Sattorova Shahlo*

SHAYBONIYLAR DAVRIDA JO'YBOR XO'JALARINING BUNYODKORLIK FAOLIYATI ..... 59-63

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Yazdonova Saxiba Kurbanovna*

KIBERMAKON: TA'LIM, TARBIYA VA IQTISODIY TA'SIR TENDENSIYALARI ..... 64-72

*Taniev Ahmadjon Bahromovich*

TUРИЗМ, ГЛОБАЛЛАШУВ ВА САВДО: УЛАРНИНГ АТРОФ-МУХИТГА ТАЪСИРИ ..... 73-82

*Ходжаниязов Элбек Сардоревич*

XORAZM VILOYATI DA TUРИЗМ TRANSPORTI ХИЗМАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ ТАХЛИЛИ ..... 83-93

*Raximov Bahromjon Ibroximovich, Ibrohimova Maqsuda Muhammadjon qizi*

O'ZBEK SANOATINING INNOVATSION TARAQQIYOTI VA IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI ..... 94-99

*Ahmedov Adham Djalolovich*

AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH ..... 100-105

*Ablazov Nurillo Xusanboyevich*

QURILISH KORXONALARI DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARINI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH ..... 106-112

<i>Абдурахманов Мухторали</i> ЎУДУДИЙ КЛАСТЕРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ БОСҚИЧЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	113-116
<i>Poshokulova Mohigul</i> BILIMLAR IQTISODIYOTINING ZAMONAVIY SHAKLLARI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIM TIZIMIDA .....	117-122
<i>Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li</i> INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH: YANGI IMKONIYATLAR VA TAHIDLAR .....	123-131
<i>Sayfutdinova Nigina Furkatovna</i> O'ZBEKISTONDA INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISH ASOSIY AHAMIYATLARI .....	132-135
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Shakarov Oybek Xudoyberdi o'g'li</i> O'ZBEK XALQI ETOSFERASIDA KORRUPTION MUNOSABATLAR PAYDO BO'LISH SABABLARINING FALSAFIY TAHLILI .....	136-139
<i>Жўрамуродов Нодир Ғайбуллаевич</i> ЖАДИДЛАР ФАЛСАФАСИДА МИЛЛИЙ ҒОЯ, МИЛЛИЙ ЎЗЛИК ВА МИЛЛИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШИ .....	140-144
<i>Sayidova Muhabbat G'afforovna</i> GLOBAL AXBOROTLASHUV TENDENSIYALARINING MILLIY VA MA'NAVIY QADRIYATLARGA TA'SIRI .....	145-149
<i>Kuraxmedov Azamat Erkinovich</i> SAMARQAND JADIDCHILARINING TURKISTON MA'RIFATPARVARLIK FALSAFASI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI .....	150-153
<i>Umarova Feruza Rozibayevna</i> O'ZBEK XALQI MA'NAVIY MADANIYATI RIVOJLANISHINING ASOSIY XUSUSIYATLARI .....	154-156
<i>Samijonov Azizbek Ismoiljon o'g'li</i> KIBERXAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING FALSAFIY-KONSEPTUAL TAHLILI .....	157-161
<i>Begbudieva Parvina Shoxruxovna</i> THE CONTRIBUTION OF MAHMUDHODJA BEHBUDI TO THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF EDUCATION SYSTEM OF TURKESTAN .....	162-166
<i>Aytbayev Mansurbek Yusupovich</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIY AQL-ZAKOVAT TO'G'RISIDA .....	167-173
<i>Muslimov Sherzod Akbarovich</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MA'NAVIY MEROSI: JAMIYAT, SIYOSAT VA SHE'RIYAT .....	174-178
<i>Jantayev Maqsud Ibragimovich</i> MUHAMMAD AL-XORAZMIY: MATEMATIKADAN FALSAFAGACHA BO'LGAN ILMIY IZLANISHLAR .....	179-184
<i>Norova Malika Fayzulloyevna</i> TASAVVUF TA'LIMOTI VA UNING SAYFIDDIN BOXARZIY DUNYOQARASHIGA TA'SIRI .....	185-191

<i>Gulova Anorgul Axtamovna</i> O‘ZBEKISTONDA ALISHER NAVOIY ASARLARIGA BO‘LGAN MUNOSABAT .....	192-196
<i>Absattorov Baxtiyor Mamarasulovich, Karimova Gulchehra Abdulkarimovna</i> BURCH VA MAS‘ULIYAT TUSHUNCHALARINING TARIXIY-NAZARIY, AN‘ANAVIY VA ZAMONAVIY TALQINI .....	197-205
<i>Berdikulov Chingiz Dusmuradovich</i> IJTIMOIY MULOQOT-SHAXS INTELLEKTUAL MADANIYATINING SHAKLLANISH OMILI .....	206-211
<i>Mamarasulov Baxriddin Shakasimovich</i> MILLIY-MA‘NAVIY YUKSALISH – MAMLAKATIMIZ MA‘NAVIY TARBIYA TIZIMINING YANGI STRATEGIYASI SIFATIDA .....	212-216
<i>Nurmatov Kamaridin Shamsiyevich</i> JAMIYAT TARAQQIYOTIDA ADOLAT TUSHUNCHASINING O‘RNI .....	217-221
<i>Bekpo‘latov Ulug‘bek Rahmatulla o‘g‘li</i> JAMIYAT TARAQQIYOTIDA SIMMETRIYA VA ASIMMETRIYA BIRLIGINI TA‘MINLASHNING DIALEKTIK TAHLILI .....	222-228
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Berdiyeva Muqarrama Anvarovna, Chernova Natalya Vasильevna</i> СТРАТЕГИИ ЛИНГВОМЕТОДИЧЕСКОГО ПОДХОДА ДЛЯ ФОРМИРОВАНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ .....	229-234
<i>Жамаҳматов Каромиддин Айнилло ўғли</i> БУРҲОНИДДИН ТЕРМИЗИЙ АСАРЛАРИНИНГ САЛЖУҚИЙЛАР ДАВРИДА ЯРАТИЛГАН ТАСАВВУФИЙ МАНБАЛАРГА ТАЪСИРИ .....	235-243
<i>Temirova Aziza Muzaffarovna, Uralova Oysuluv Poyan qizi</i> ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA “KO‘K” SIFAT BELGISINING SEMANTIК XUSUSIYATLARINING TADQIQI .....	244-247
<i>Mansurova Mohinur Akmal qizi</i> HAJVIY TAFAKKUR TABIATI – SATIRA VA YUMOR TUSHUNCHASI .....	248-252
<i>Яркулова Фотима Усмановна, Исломова Марьям</i> ИМЕННОЕ ПРЕДЛОЖЕНИЕ В ПОВЕСТЯХ И.С.ТУРГЕНОВА .....	253-257
<i>Murodova Muqadas Ikromovna</i> XX ASR INGLIZ VA O‘ZBEK ADABIYOTIDA YARATILGAN SATIRIK ASARLAR TADQIQI .....	258-263
<i>Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna</i> O‘ZBEK ADABIYOTIDA LATIFA JANRI TARAQQIYOTI VA TAHLILI .....	264-268
<i>Davronov Shekroz Abrorovich</i> OG‘ZAKI TARJIMA VA UNDA KOMPRESSIYANING ROLI .....	269-273
<i>Begmatov Azizbek Tursunbayevich</i> INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI ONOMASTIK BIRLIKLAR TADQIQI .....	274-280
<i>Ibragimova Moxiraxon Anvarovna</i> NUTQIY AKTLAR TASNIFI .....	281-285
<i>Расулова Истода Абдулатифовна</i> К ПРОБЛЕМЕ ДЕФИНИЦИИ ЯЗЫКОВЫХ УНИВЕРСАЛИЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ ИНВАРИАНТНЫХ СВОЙСТВ В КОНТЕКСТЕ ЯЗЫКОВОЙ ВАРИАТИВНОСТИ .....	286-293

<i>Obidova Go'zalxon Ma'rufjon qizi</i> O'ZBEK TILIDA OMAD VA OMADSIZLIKNI NOMLOVCHI LEKSIK VA FRAZEOLGIK BIRLIKLAR .....	294-299
<i>Furkatova Maxliyo To'lqin qizi</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI SHAXS-SON KATEGORIYASI .....	300-309
<i>Baxramov Xabibillo Sadikovich</i> INGLIZ TILIDA "POISON-ZAHAR" KONSEPTINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI .....	310-315
<i>Тухтаев Сирожиддин Тошпўлатович</i> ПАРЕМИОЛОГИЯДА САХИЙЛИК КОНЦЕПТИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ .....	316-323
<i>Qiyomov Shohabbosxon Sharofiddin o'g'li</i> XATTOTLIK SAN'ATINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI .....	324-327
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i> YOLG'IZLIK FENOMENINING PSIXOLOGIK, IJTIMOY VA EKZISTENSIAL ASPEKTLARI .....	328-331
<i>Qayumova Mohinur Murodullayevna</i> LEXICAL-SEMANTIC FEATURES OF THE CONCEPT «STEP» IN THE ENGLISH LANGUAGE .....	332-337
<i>Sayipova Dilafruz Rahimovna</i> O'ZBEK NASRI TARAQQIYOTIDA "BOBURNOMA"NING AHAMIYATI .....	338-342
<i>Diyarov Akmal To'lqin o'g'li</i> INGLIZ TILIDAGI BOG'DORCHILIK TERMINLARINING GENETIK-ETIMOLOGIK TAVSIFI .....	343-348
<i>Атаназарова Шохида Бахрамовна</i> РЕКЛАМАДА ИЛЛОКУЦИЯ ВА ПЕРЛОКУЦИЯНИНГ АМАЛГА ОШИШИДА БИЛБОРДЛАРНИ АҲАМИЯТИ (РЕКЛАМА БАННЕРЛАРИ МИСОЛИДА) .....	349-353
<i>Matadqulova Kamila Abduxoliqovna</i> ANCIENT EGYPTIAN LITERATURE: THE OLD, MIDDLE AND NEW KINGDOMS .....	354-364
<i>Alimova Dilrabo</i> SHARQ ADABIYOTIDA QASIDANING TARIXIY TAKOMILI .....	365-373
<i>Abduqaxxorova Nargiza Rustamovna</i> RUS VA O'ZBEK TILLARIDAGI TOPISHMOQLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI .....	374-379
<i>Курбонова Нодира Розиковна, Пулатова Сабина Шарифовна</i> ЛИТЕРАТУРНЫЙ АНАЛИЗ ТЕМЫ УТРАЧЕННОЙ РОДИНЫ В РОМАНЕ ВЛАДИМИРА НАБОКОВА «МАШЕНЬКА» .....	380-390
<i>Khamidov Tohirjon Olmos ogli</i> ANALYSIS OF TYPES OF ENGLISH PHRASAL VERBS ACCORDING TO THE STRUCTURE .....	391-396
<i>Umurzakova Kommuna Xursanovna</i> O'ZBEKISTON IJTIMOY TARMOQLARIDA YOSHLAR NUTQIDAGI O'ZGARISHNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI .....	397-402
<i>Habibullayeva Shoira Shukurillayevna</i> ONA TILI DARSIDA GAP BO'LAKLARI VA ULARNI TAHLIL QILISH METODIKASI .....	403-406

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Itomov Nurillo Fayzullayevich</i> ТА’МИНЛОВЧИ ТО’ЛОВ – МАЖБУРИЯТЛАРНИ ТА’МИНЛАШНИНГ ЯНГИ УСУЛИ СИФАТИДА .....	407-414
<i>Салаев Нодирбек Сапарбаевич</i> ЖИНОЯТ ҲУҚУҚИДА ДЕКРИМИНАЛИЗАЦИЯ: МОҲИЯТИ, ТУРЛАРИ ВА АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР .....	415-431
<i>Ходжиев Юнус Мухитдинович</i> МУЛК ҲУҚУҚИ БЕКОР БЎЛИШИНИНГ ШАХС ИХТИЁРИГА БОҒЛИҚ БЎЛМАГАН АСОСЛАРИНИ ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ .....	432-436
<i>Сайдивалиева Хуршида</i> БОЛАЛАРНИ ОИЛАГА ТАРБИЯГА БЕРИШ ЮЗАСИДАН ВУЖУДГА КЕЛУВЧИ МУНОСАБАТЛАРНИ КЕЛИШУВЛАР АСОСИДА ТАРТИБГА СОЛИШ МАСАЛАЛАРИ .....	437-445
<i>Миқитов Вобур</i> THE LEGAL NATURE OF E-COMMERCE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN .....	446-451
<i>Raimova Nargiza Doroyevna, To‘uchiyeva Bahora Otabekovna</i> PREVENTING FALSE AND MANIPULATIVE ADVERTISING IN SOCIAL NETWORKS .....	452-459
<i>Чориева Хуршидабону Хуррам қизи</i> ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ВАСИЙЛИК ВА ҲОМИЙЛИК ОРГАНЛАРИНИНГ ҲУҚУҚЛАРИ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ .....	460-468
<i>Toshkanov Nurbek Bahriddinovich</i> UNDIRUVNI INTELLEKTUAL MULK OBYEKTLARIGA BO‘LGAN HUQUQLARGA QARATISHNING AYRIM FUQAROLIK-HUQUQIY MASALALARI .....	469-478
<i>Kubaeva Ismigul Farhod qizi</i> CHALLENGES OF BLOCKCHAIN TO LAW AND STATE .....	479-484
<i>Юсупов Ўктамбой Абсаматович</i> ДАВЛАТ ХАРИДЛАРИ СОҲАСИДАГИ КОРРУПЦИЯВИЙ ҲУҚУҚБУЗАРЛИККА ҚАРШИ КУРАШДА ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ УСУЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ .....	485-491
<i>Баходирова Сабина Улугбек кизи</i> РОЛЬ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ КВАЛИФИКАЦИИ УМЫШЛЕННОГО ТЯЖКОГО ТЕЛЕСНОГО ПОВРЕЖДЕНИЯ .....	492-503
<i>Эгамбердиев Ферузбек Аскаржон угли</i> НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНСТИТУТА ХОДАТАЙСТВ КАК СПОСОБ ЗАЩИТЫ ПРАВ УЧАСТНИКОВ НА ДОСУДЕБНОМ ЭТАПЕ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН .....	504-508
<i>Ibrohimov Behzodbek Bahromjon o‘g‘li</i> O‘ZBEKISTONDA MOLIVAVIY HUQUQIY MUNOSABATLAR ASOSI VA AHAMIYATI .....	509-520
<i>To‘uchiyeva Bahora Otabekovna, Raimova Nargiza Doroyevna</i> PREVENTING FALSE AND MANIPULATIVE ADVERTISING IN SOCIAL NETWORKS .....	521-528

### 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Ibraximov Sanjar Urunbayevich</i> SPORT MASHG'ULOT JARAYONINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY YO'LLARI VA TAMOYILLARI .....	529-539
<i>Urazkulova Anna Vitalyevna</i> OLIV TA'LIMDA RUS TILI FANINI O'QITISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING TOPSHIRIQLARINI ILMIY-PEDAGOGIK AHAMIYATI .....	540-545
<i>Қаршиева Дилбар Эшпулатовна</i> ПЕДАГОГИК КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ ШАКЛЛАНИШИДА МАЛАКАВИЙ АМАЛИЁТНИНГ ЎРНИ .....	546-550
<i>Ajjiyeva Muxabbat Baxtibayevna</i> KIMYO FANI BO'YICHA MASHG'ULOTLARNI FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA TASHKIL ETISH .....	551-555
<i>Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna</i> O'QITUVCHILARNI KASBIY RIVOJLANTIRISHDA QIYOSIY TAHLIL: JARAYON VA FAOLIYATLI YONDASHUV .....	556-564
<i>Radjabova Gulnoza Giyosiddinovna</i> SHIFTING THE FOCUS OF CORPUS LINGUISTICS FROM RESEARCH TO CLASSROOM PRACTICE .....	565-570
<i>Акрамова Умеда Салиевна</i> ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИКТ ДЛЯ УЧАЩИХСЯ С НЕРУССКИМ ЯЗЫКОВЫМ ФОНОМ .....	571-582
<i>Abdusattarova Zaynab Abdujalil qizi</i> МАТЕМАТИКА FANINI LOYIHAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYASI ORQALI O'QITISH ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA XXI ASR KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI .....	583-590
<i>Boboqulov Chori Urolovich</i> SHAHMAT O'YINI ORQALI BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI .....	591-595
<i>To'xtayev Hasan Toshpo'latovich</i> ZAMONAVIY MAKTAB O'QUVCHILARINI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA KOGNITIV- PSIXOLOGIK TO'SIQLARNING TA'SIRI .....	596-599
<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i> JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	600-607
<i>Rahimova Dilshoda Baxriddinovna, Turatosheva Sadoqat Raxmatullayevna</i> OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH (SOTSIOLOGIK TAHLIL) .....	608-615
<i>Мадаминова Наргизахон Жахонгир қизи</i> МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРГА МОСЛАШТИРИЛГАН ВИРТУАЛ ЎҚИТИШ УСУЛЛАРИ .....	616-619
<i>Qodirov Xasanboy Oribjonovich</i> RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TEXNIKA OLIV TA'LIM SOHASI MUTAXASSISLARDA KASBIY-IJODIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI .....	620-526

<i>Aliyeva Iroda Otabek qizi</i> МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМГА ХОРИЙ ТАЖРИБАСИНИ ҚО'ЛЛАШ БО'ҲИЧА МАВЖУД ТА'ЛИМ ТАЛАБЛАРИНИНГ ТАСНИФИ YUZASIDAN ТАҲЛИЛЛАР .....	627-631
<i>Ro'zimurodov Ilyos Azamat o'g'li</i> O'RTA ASRLAR MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARINING CHOLG'USHUNOSLIKKA OID NAZARIYALARI: ABU NASR FOROBIYNING MUSIQIY TADQIQOTLARI .....	632-636
<i>Yaxshiboyeva Shahnoza Bahodir qizi</i> JAHON AXBOROT RESURSLARI ORQALI TALABALARNING TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI .....	637-642
<i>Салиев Улугбек, Салиева Низора</i> ОБЩЕНИЕ МЕДИЦИНСКОГО РАБОТНИКА: РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ В ПРАКТИКЕ .....	643-648
<i>Маматкулова Угилжон Эшмирза кизи, Абдуллаева Дилбар Алимбаевна</i> МЕТОДИЧЕСКАЯ ИНФОРМАЦИОННАЯ ПЛАТФОРМА ДЛЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА, ИЗУЧАЮЩИХ АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК, И ПУТИ ЕЕ РЕАЛИЗАЦИИ .....	649-655
<i>Муминова Офтобхон Каримовна</i> ИСТОРИЯ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ: ОТ АНТИЧНОСТИ ДО СОВРЕМЕННЫХ ТЕРМИНОВ .....	656-661
<i>Ахмедова Уктамхон</i> РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЗАНЯТИЙ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ .....	662-667
<i>Sattarova Markhabo Raxmonkulovna</i> ТА'ЛИМДА RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH .....	668-672
<i>Nuriddinova Robiya Bekjonaliyevna</i> МАКТАБГАЧА VA BOSHLANG'ICH TA'ЛИМДА МАТЕМАТИКА MASHG'ULOTLARINING UZVIYLIGINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI .....	673-678

**Received:** 30 November 2024

**Accepted:** 5 December 2024

**Published:** 15 December 2024

*Article / Original Paper*

## **SOCIAL INTERACTION - A FORMING FACTOR OF PERSONAL INTELLECTUAL CULTURE**

**Berdikulov Chingiz Dusmuradovich**

Researcher,

Samarkand State University named after Sharof Rashidov

**Abstract.** The article effectively highlights the fact that social communication is the main factor shaping a person's intellectual culture, and that it is crucial for a person to be educated, cultured and have creative potential as an integrated system. This process ensures not only intellectual, but also moral, aesthetic and social development of a person. Therefore, the importance of improving the quality of social communication, making full use of its opportunities for the development of society and each individual is emphasized.

**Keywords:** communication, youth, spiritual and moral education, value, integrative, personality, culture, behavior, work, morality, intelligence.

## **IJTIMOY MULOQOT-SHAXS INTELLEKTUAL MADANIYATINING SHAKLLANISH OMILI**

**Berdikulov Chingiz Dusmuradovich**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti  
tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Maqolada ijtimoiy muloqot shaxsning intellektual madaniyatini shakllantiruvchi asosiy omil bo'lib, u shaxsning bilimli, madaniyatli va ijodiy salohiyatga ega bo'lishida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi yaxlit tizim sifatida samarali yoritiladi. Bu jarayon insonning nafaqat intellektual, balki axloqiy, estetik va ijtimoiy jihatdan ham rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bois, ijtimoiy muloqotning sifatini oshirish, uning imkoniyatlaridan to'liq foydalanish jamiyat va har bir shaxs rivoji uchun muhimligi bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** muloqot, yoshlar, ma'naviy-axloqiy tarbiya, qadriyat, integrativ, shaxs, madaniyat, xulq, mehnat, odob-axloq, intellekt.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I12Y2024N32>

Jamiyatimiz hayotida madaniyat har qanday ijtimoiy muloqot va hodisaga nisbatan qo'llaniladigan tushunchadir. Shu ma'noda madaniyat tushunchasini umuman ong, tafakkur yoki ularning biror-bir ko'rinishiga tatbiq etish mumkin. Har qanday ijtimoiy muloqot va hodisa singari intellect ham "madaniyat" tushunchasining bevosita yordamida tavsiflanishi va ta'riflanishi tabiiydir. "Intellekt" kategoriyasi insonning fikrlashi, ratsional bilishi, abstrakt-analitik faoliyat yuritishi, innovatsion informatsiyalarni generatsiya qilish qobiliyatini anglatadi. Falsafiy qomusiy lug'atda Intellectning keng va tor ma'nolari yoritilgan. "Intellekt keng ma'noda kishining voqea-hodisalar mohiyatini to'laligicha bilishiga asoslangan va shu asosda namoyon bo'ladigan faoliyatidir; tor ma'noda insonning tafakkur, fikr yuritish

salohiyatini anglatadi”[1-168]. Demak, intellekt yoshlarning innovatsion bilimlarni egallashi va ulardan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faoliyatida samarali foydalanishini ta’minlovchi tafakkuri rivojlanishining muayyan darajasi, tushunish va anglash qobiliyatidir. U shaxsning bilish va jamiyatdagi xulq-atvori asosini tashkil qiladi.

Qobiliyat muammosi faylasuflarni o’ziga jalb etib kelgan falsafiy tadqiqotlar obyektidir. Binobarin, shaxs qobiliyati tufayli faoliyatning, shu jumladan, boshqaruvning subyektiga aylanadi, ularni taraqqiy ettirib yuksak malakaviy mahoratga erishadi. Faylasuf olimlarning ta’kidlashlaricha, inson qobiliyatining shakllanishi uning iste’dodiga bevosita bog’liq bo’ladi. Shu o’rinda “shaxsning kamol topishida qobiliyat va iste’dodning ham ahamiyati katta. Qobiliyat muayyan faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo’lgan individual xususiyatdir. Odam qobiliyatli bo’lib tug’ilmaydi, balki etishadi. Ilk bolalik davridan boshlab odamda nimagadir qobiliyat bo’ladi, nimagadir esa bo’lmaydi. Buni ota-ona ilg’ab olsa, keyinchalik bola yetuk shaxs bo’lib etishishi mumkin”[2-116].

Insonda ijtimoiy muloqot natijasida iste’dod rivojlanadi. Shu o’rinda iste’dod inson miyasi, asab tizimi, hissiyot va xatti-harakatining tug’ma anatomik-fiziologik xususiyati, shaxs qobiliyatlari taraqqiyoti asosini tashkil qiluvchi funksional o’ziga xosligidir. Insonlar tug’ma jihatdan turli Qobiliyatga ega bo’ladi, ular qobiliyatlar rivojlanishining asosini tashkil etadi. Shaxsning o’z vaqtida rivoj topmagan qobiliyati yo’qolib ketishi ham mumkin. Ijtimoiy muloqot — ijtimoiy subyektlar o’rtasida muayyan keli-shuvga va hamjihatlikka erishish maqsadida teng huquqlilik, erkinlik va o’zaro manfaatdorlik tamoyillari asosida amalga oshirilgan kommunikativ aloqalarni ifodalovchi tushunchadir. “Ijtimoiy muloqot jamiyatdagi ijtimoiy kommunikatsiyaning o’ziga xos ko’rinishi, ijtimoiy ma’nolarning tartiblashtirilgan almashinuvi sifatida ro’yobga chiqar ekan, ijtimoiy munosabatlarning yetukligi darajasini ifodalaydi”[3-105]. Shu o’rinda tafakkur inson mehnatini aqliy va jismoniy turlarga ajratar ekan, o’zining mo’ljal, maqsad va amaliy ko’rinishlari bilan mustaqil faoliyat tusini oladi. Shaxs intellektual mehnat jarayoni mohiyatan mustaqil va yashirin tarzda kechadi. Uning tashqi vositalar yordami bilan tashkil topishi murakkab bo’lganligi uchun inson intellektual mehnat jarayonida tafakkurdan faoliyatning ichki vositasi sifatida keng foydalanadi. Ijtimoiy muloqot xar doim intellektual mehnat bilan o’zaro bog’liq bo’lib, bu insonning shaxsiy, ixtisoslashgan va ijtimoiy ehtiyojlarini qondiradigan aqliy faoliyati va subyekt yoki subyektlar guruhining maqsad va vazifalarni amalga oshirish jarayoni samaradorligini ta’minlovchi faoliyatdir.

Ijtimoiy muloqot insonning jamiyat bilan aloqalari natijasida shakllanadigan jarayon bo’lib, u shaxsning intellektual madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o’ynaydi. Intellektual madaniyat esa insonning bilim saviyasi, mantiqiy fikrlash qobiliyati, ijodkorlik va axloqiy qadriyatlarni o’zida aks ettiradi. Quyida ijtimoiy muloqotning shaxs intellektual madaniyatini shakllantirishdagi asosiy omillari ko’rib chiqiladi: 1. Bilim almashinuvi va o’zaro ta’sir 2. Ijtimoiy muloqot shaxsning bilim va tajribasini boyituvchi asosiy vositadir. 3. Muloqot jarayonida odamlar: 4. Yangi bilim va ma’lumotlarni o’zlashtiradi; 5. Turli nuqtai nazarlarni tahlil qilib, fikrlash qobiliyatini oshiradi; 6. Ijtimoiy muhitdagi yangiliklardan xabardor bo’ladi va ularni qabul qilishga o’rganadi.

Hozirgi davr fan-texnikasi taraqqiyotining muayyan g’oyalardan biri bo’lgan “sun’iy intellekt” yaratish muammosi faylasuf tadqiqotchilar diqqatini o’ziga tortayotgan va ratsionallashuv jarayonining jamiyatga ta’siri masalasini yanada keskinroq ta’sir qilishi mumkin bo’lgan ijtimoiy muammolardan biridir. Ta’kidlash lozimki, taqdir biorobot

qiyofasidagi Sun'iy intellektni yaratib bo'ldi. Shunday ekan, aqlli inson esa o'z hayotining ma'nosi bilan qiziquvchi, uni topishga intiluvchi shaxsdir. Ijtimoiy muloqotning har qanday shakli turli uslublarda amalga oshiriladi. Albatta, mazkur uslublar o'zining turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Shu boisdan ularning barchasini birma-bir tilga olib o'tishning imkoni yo'q. Buning ustiga, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy soha-lari, ayniqsa ma'naviy sohasi rivoj topgani sayin ushbu uslublar turkumi ham yangilari evaziga boyib boradi. Biz bu o'rinda ularning eng muhimlarini eslatish bilan kifoyalanamiz. Avvalo, ijtimoiy muloqotning xabardor qilish uslubini tilga olmoq joiz. Ma'naviy hamkorlik avvalo ijtimoiy subyektlardan ma'naviy-ruhiy vaziyat va unga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillar, jamiyat ma'naviy xavf-sizligi darajasi va bu boradagi muammolar, jamiyat a'zolari ma'naviy qiyo-fasining shakllanganligi darajasi va unga xalal berayotgan ijtimoiy illat-lar, yoshlar ma'naviy tarbiyasining dolzarb masalalari haqida bir-biriga muayyan axborotlarni etkazib borishni taqozo qiladi. Bu axborotlar, bir tomondan, tomonlarning vaziyatdan voqifligi darajasini oshiradi, ikkinchi tomondan esa ma'naviy kollaboratsiya subyektlariga ijtimoiy pozitsiyalarni muvofiqlashtirish imkonini beradi..

Globalashuv davri rivojlangan ilmiy tafakkurining yuqori marralari va yutuqlaridan biri bo'lgan informatikaning insoniyat ijtimoiy, iqtisodiy hayotidagi o'rni va rolga e'tibor berish lozim. Bu esa faylasuf olimlar oldida madaniyat mazmunidagi ilmiy bilimlar taraqqiyotining chegarasi muammosini vujudga keltirdi. Zero, globalashuv davrida inson mislsiz kuchayib borayotgan "informatsiya to'foni" ichida qolmoqda, natijada eng muhim informatsiyani ajratib olish muammosi yuzaga chiqmoqda, ayniqsa, insonning dunyoga, borliqqa munosabati kabi ma'naviy muammoni yechish murakkablashmoqda. Jamiyatda ijtimoiy muloqotlar ilmiy bahslar, ma'ruzalar yoki ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot shaxsning intellektual salohiyatini oshiradi va ijtimoiy rollar va kommunikatsiya vositalari insonlarni turli ijtimoiy rollarni bajarish jarayonida muloqot vositalarini qo'llaydi, bu esa uning madaniy saviyasi va intellektini shakllantiradi. Ijtimoiy rollar orqali shaxs: 1. Nutq madaniyatini rivojlantiradi; 2. Turli ijtimoiy guruhlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yadi; 3. Kompyuter texnologiyalari, axborot vositalari va boshqa zamonaviy aloqa vositalaridan foydalanishni o'rganadi.

Shaxs intellektual madaniyatining tarkibiy qismlaridan biri intellektual resursdir. U insonning bilim, hayotiy tajriba, zehn-idrokka asoslanuvchi aqliy-omilkorlik salohiyati, intellektual imkoniyati majmui bo'lib, uning turmush tarzi, aqliy faoliyatining rivojlanganlik darajasiga bog'liqdir. Shu o'rinda ijodiy muloqot orqali shaxs o'z intellektual qobiliyatini kengaytiradi va madaniyatni boyitadi.

Muloqot muhiti va intellektual o'sish asosida muloqotning sifati va samaradorligi muloqot muhiti bilan bog'liq. Quyidagilar bu jarayonda muhimdir: 1. Oilaviy muhit: 2. Bolalar oiladagi muloqot orqali birlamchi bilim va intellektual ko'nikmalarni egallaydi. Ta'lim muhitlari: Maktab va oliy ta'lim muassasalaridagi muloqot shaxsning ilmiy va intellektual o'sishiga xizmat qiladi. Madaniy muhit: Kitobxonlik, teatr, muzey va boshqa madaniy faoliyatlar orqali shaxsning intellektual madaniyati boyiydi.

Intellektual kapitaldan farqli o'laroq, intellektual resurs kategoriyasi cheklangandir. Bu, tabiiyki, vaqt va mutaxassis tomonidan yaratilgan intellektual mahsulotning umumiy miqdoriga bog'liq bo'ladi, bunda samaradorlikning pasayishi subyektga keyingi faoliyatini davom ettirishga imkon bermaydi. Binobarin, insonning intellektual resursi bu fiziologik hodisagina emas, uning aqliy faoliyatining asosi hamdir. Aqliy faoliyat o'z tabiatiga ko'ra

subyektiv, shakl jihatidan obyektivdir. Faoliyatning bunday mo'jizakorligi uning sohibi bo'lgan insonga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni taqozo qiladi.

Intellektual qobiliyat sohiblari faoliyatini har jihatdan qo'llab-quvvatlash fuqarolik jamiyati rivoji asosida turadi. "Afsuski, biz keyingi vaqtda zahmatkash olimlarimizning ilmiy izlanishlari va erishayotgan yutuqlarini keng yoritish, atroflicha targ'ib qilish masalasini e'tiborimizdan biroz chetda qoldirayotganimizni ham ochiq aytish kerak. Ilm-fan yutuqlarini jamoatchilik, avvalo yoshlarimiz o'rtasida keng ommalashtirish, bu sohaga ularning e'tibori va qiziqishini kuchaytirish bo'yicha biz hali ko'p ish qilishimiz zarur. Mamlakatimizda ilm-fanni dunyoda hech kimdan kam bo'lmagan darajada rivojlantirish uchun sizlarga va barcha olimlar, ilmiy jamoalarga zamonaviy shart-sharoitlarni yaratib berish biz uchun ham qarz, ham farzdir"[4-177].

Intellektual madaniyat haqida so'z borganda, uning tarkibidan joy olgan "intellektual salohiyat"ga ham e'tibor qaratish muhim nazariy-metodologik ahamiyat kasb etadi. Intellektual resursdan farqli o'laroq intellektual salohiyat aqliy-ijodiy imkoniyatlar majmuini anglatib, ular ko'pincha yashirin, rasman qayd etilmagan bo'lsa-da, xatti-harakatni amalga oshirishning Real negizi sanaladi. Binobarin, subyekt muayyan faoliyatni amalga oshirmog'i uchun xatti-harakatlarni ijro etish, amalga oshirish, bajarish funksiyalari majmuiga, ya'ni aqliy mehnat predmetini o'rganishda tadrijiylikni ta'minlovchi alohida, murakkab aqliy xatti-harakatlar yig'indisiga ega bo'lishi lozim. Shuning uchun shaxsiy bilim muqarrar tarzda intellektual salohiyatni talab qiladi. Unda nafaqat bilish borlig'i, balki bilishga harakat qilayotgan shaxs, uning bilimga qiziqishi, bilimni talqin qilish va undan foydalanishga nisbatan shaxsiy yondashuvi, uni o'ziga xos tarzda anglab etishi mujassamlashadi. Intellektual voqelik insonning botiniy faoliyatidir. Bunda intellekt inson professional faoliyati tavsifi sifatida namoyon bo'ladi va subyektning intellektual potensialini ro'yobga chiqaradi. Intellektual potensial funksional jihatdan inson qobiliyati imkoniyatlarini oldindan bilish, uning fikrlash usullari va vositalari, intellektual madaniyat asosi sifatida shakllangan munosabat va sosiomadaniy qadriyatlarining rang-barang turlarini o'z ichiga oladi.

Inson faoliyati ayni paytda ikki doira, ya'ni botiniy, fikriy hamda tashqi, xulqiy (faoliyatli) holatda ko'zga tashlanadi, ya'ni, inson o'ylaydi, shu bilan birga, o'z faoliyatini tashqi, ya'ni xulqiy xatti-harakatlar ko'rinishida namoyon qiladi. Hozirgacha intellektual madaniyat sohasida yuzaga kelgan jamiki ilmiy qarashlarni shartli ravishda uch xil tarzda, ya'ni ijtimoiy, gumanistik va informatsion-kommunikativ yo'nalishlarga ajratib o'rganilgan. Ta'kidlash lozimki, ijtimoiy yo'nalish tarafdori bo'lgan faylasuf tadqiqotchilar madaniyatga "inson uchun tabiiy bo'lmagan ma'naviy me'yorlar, qadriyatlar, ijod tarzida yondashadi"[5-23]. Gumanistik yo'nalish esa madaniyatni inson faoliyati, uning natijasi yaratadigan ma'naviy qadriyatlar, insonning faol, mohiyatli borlig'i deb ta'kidlashadi. Informatsion-kommunikativ yondashuvda esa madaniyatning avloddan-avlodga bilim va informatsiyalar etkazib berish xususiyatlariga e'tibor qaratiladi, buning boisi shuki, madaniyat informatsiyani doimiy ravishda eng foydali va qulay uslublarni ishlab chiqqan holda saqlaydi, yangi informatsiyalarni qabul qiladi, ularni qayta ma'lumotlarga aylantiradi, ularni bir tizimdan boshqasiga o'tkazadi.

Yuqoridagi fikrlar intellektual mulkka ma'naviy madaniyat hodisasi sifatida yondashish mumkinligidan dalolat beradi. Ayni texnika yutuqlarini hisobga olgan holda intellektual mulk obyektlari fuqarolik jamiyati taraqqiyotining sifat holatini belgilashi mumkin. "Dunyoviy bilimlar va informatsiyalarni avloddan-avlodga tarqatuvchi, etkazib beruvchi ta'lim to'la

ma'noda mantiqan intellektual mulk tarkibiga kiradi. Zero, intellektual mulk qadriyatlari shunday bilim va axborot, ma'naviy-ijodiy faoliyat mahsuli sifatida ahamiyat kasb etadi"[6-11].

Madaniyatni inson faoliyati natijalari yig'indisi sifatida ta'riflovchi nuqtai nazar va mantiqiy umumlashmalarga ko'ra intellektual mulkni madaniy hodisalar qatoriga kiritish va tahlil qilish mumkin. Bunday yondashuv intellektual mulk mohiyatiga mos tushadi. Binobarin, intellektual mulk inson intellekti faoliyati natijalarida o'z aksini topadi.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida intellektual mulk axloqiylik, ma'naviylik va ijodiylikni o'zida gavdalandirishini ham e'tibordan soqit qilib bo'lmaydi. Inson umuman jamiyatdagi real norma va qadriyatlarga ijodiy munosabat bildirmaganda intellektual mulk asarlari yaratilmagan bo'lardi. Intellektual mulk obyektlari ma'naviy asoslar bilan boyitilgan bo'ladi, chunki uning ayniqsa hozirgi zamonda vujudga kelishi tasodifiy emas va ko'proq fan, san'at va texnika, innovatsion texnologiyalarning ijobiy yo'nalishiga qaratilgandir. Bu esa o'z navbatida intellektual mulkning axloqiy ruhini tashkil qiladi, chunki fan, san'at va texnika doimiy rivojlanmasa, ijtimoiy hayotning bir me'yorda kechishiga putur etadi.

Jamiyatdagi har qanday hodisani ilmiy tadqiqot obyekti sifatida qarab chiqish mumkin bo'lganidek, ayni bir obyektga turli predmetlar mos kelishi mumkin. Buning ma'nosi shuki, bilim predmetining xarakteri qanday obyektga aks ettirish emas, shu bilan birga, yana bu predmetning muayyan vazifani ado etish sababiga ham bog'liq bo'ladi. Boshqa holatda aksar mualliflar ma'naviy va intellektual madaniyatga murakkab va ayni paytda bir-biridan tafovut qiluvchi hodisa tariqasida ta'rif beradi. Shaxsning individual ma'naviy madaniyati ko'p jihatdan jamiyatda kechayotgan ijtimoiy, iqtisodiy jarayonlarga bog'liq bo'ladi. Ma'naviy-madaniyat doimo intellektual madaniyatning ta'sirida rivoj topadi. Globallashuv sharoitida bu ta'sir jiddiy o'zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Bu jarayonda uyg'unlikka intilish zaruriyat sanalsa-da, unga erishish qiyin. Shuning uchun ma'naviy madaniyat bilan intellektual madaniyatni mexanik ravishda aralashtirib yuborish va ularning o'ziga xos jihatlarini inkor etish jiddiy murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Bunday yondashuv bu ikki hodisaning mohiyatini belgilashda ham ilmiy metodologik ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda jamiyatdagi ijtimoiy muloqotni, ya'ni ijtimoiy subyektlar o'rtasida muayyan kelishuvga va hamjihatlikka erishish maqsadida teng huquqlilik, erkinlik va o'zaro manfaatdorlik tamoyillari asosida amalga oshirilgan kommunikativ aloqalarni yangi bosqichga ko'tarish, uning samarasini oshirishga to'sqinlik qilib turgan omillar va muammolarni bartaraf etish zarur bo'ladi. Shuningdek, intellekt inson uchun olamning mohiyatini tushunishga, anglashga yo'naltirilgan faoliyat sifatida intellektual madaniyat negizini tashkil qiladi. Modomiki, madaniyat inson yetukligining ifodasi ekan, uning intellektual kamol topish darajasi aql, idrok, zakovat kabi qobiliyatlar bilan uzviy bog'langan va ularning yaxlit gavdalanishini aks ettiradi. Mazkur vazifalarning ro'yobga chiqarilishi, ijtimoiy subyektlar ijtimoiy pozitsiyasini mustahkamlaydi, va ular o'rtasidagi ijtimoiy muloqot samarasini oshiradi.

#### **Adabiyotlar/Literatura/References:**

1. Фалсафа. Қомусий луғат.– Тошкент, Шарқ, 2004.– Б.168.
2. Ибодуллаев З. Асаб ва руҳият. – Тошкент: "ZAMIN NASHR" , 2018. – Б.116
3. Курбатов В.И. Социальный диалог: концептуальный анализ.// Гуманитарий Юга России, 2014, №1.- 105-с.
4. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. - Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.177-178.

5. Ахмедова Э., Габидулин Р. Культурология.Мировая культура–Тошкент:Академия художеств Узбекистана, 2001. – С. 23
6. Оқюлов О. Интеллектуал мулк ҳуқуқи. –Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашриёти,2005. – Б. 11.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 12 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari**” elektron jurnali  
2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli  
guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.  
**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**  
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Bog‘lanish uchun telefonlar:**  
(99) 602-09-84 (telegram).